JAHON DEMOGRAFIK KO‘RSATKICHLARI VA UNING GEOGRAFIK JIHATLARI

Jabbarov Abdug‘ani, Toshkent kimyo-texnologiyalar insitituti Yangiyer filiali dotsenti, t.f.n.
e-mail: aJabbarov@mail.ru
Yuldashov Abrorjon Ubaydulloyevich, Guliston davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti, g.f.n.
e-mail: abrorjon_yuldashov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi rivojlanishining asosiy qonuniyatlari keltirilgan. Aholi rivojlanishiga ta’sir etuvchi geografik omillar aniqlanadi. Aholining rivojlanish qonuniyatlarining tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillarga bog‘liqligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: diversifikatsiya, feodalizm, kapitalizm, sotsial, qonun ustuvorligi, institutsional salohiyat, kuchli demokratik institutlar;

МИРОВЫЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ И ИХ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Аннотация. В статье рассматриваются основные закономерности развития населения. Выявляются географические факторы, влияющие на развитие населения. Анализируется зависимость закономерностей развития населения от природных, социальных, экономических, политических и экологических факторов.

Ключевые слова: диверсификация, феодализм, капитализм, социальный, верховенство права, институциональный потенциал, сильные демократические институты;

WORLD DEMOGRAPHIC INDICATORS AND ITS GEOGRAPHICAL ASPECTS

Abstract. This article presents the main patterns of population development. Geographical factors affecting population development are identified. The dependence of population development patterns on natural, social, economic, political and environmental factors is analyzed.

Keywords: diversification, feudalism, capitalism, social, rule of law, institutional capacity, strong democratic institutions;

KIRISH. “Biz yangi O‘zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug‘vor maqsadni o‘z oldimizga qo‘yganmiz. Bu borada “Jamiyat-islohotlar tashabbuskori” degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo‘lishiga erishmog’imiz lozim. Eng asosiysi, bu islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz kerak. Odamlarimiz yetarli daromad topishi uchun eng qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirib, yangi-yangi korxonalar va ish joylarini ko’paytirishimiz zarur. Bu g‘oyat dolzarb ishlarni o‘zimiz qilmasak, hech kim bizga chetdan kelib qilib bermaydi. Xalqimiz

shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi” [1]. Prezidentimizning ushbu davatlari asosida qaraydigan bo‘lsak, islohatlarimiz asosida inson turibdi. Uni o‘rganish, o‘ziga xos tomonlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish davr talabidir. Haqiqatdan ham, buning asosida aholi turmush sharoiti va uni yaxshilash mexanizmi yotadi. Bizga ma’lumki, aholi deganda ma’lum hududda (butun yer shari, uning ayrim qismlari-qit’alar, materiklar, mamlakatlar, shaharlar, tumanlar, qishloqlar, mahallalar va hokazolarda) yashayotgan kishilar guruhi tushuniladi. Agar e’tibor beradigan bo‘lsak, aholi va uning xo‘jalik faoliyati hamma davrlarda geografiya fanining qiziqtirib kelgan. Geografiya fanlari tizimida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning qaror topishi bilan bu masalaga qiziqish ayniqsa kuchaydi. Bu bejiz emas edi. Chunki iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning vazifasi ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy joylashish qonuniyatlarini o‘rganishdir. Bugungi kunda iqtisodiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga aylandi. Iqtisodiy va ijtimioiy geografiya-ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish qonuniyatlarini, aholi hayot faoliyati va yashash tarzini, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar doirasida o’rganadi.

Aholi har qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Jamiyat hayoti uchun zarur bo‘lgan barcha boyliklar insonning mehnati natijasida yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan mehnat qurollari, xom ashyo, yoqilg‘i va boshqa qo‘shimcha materiallar faqat inson qo‘li, mehnati tufayligina harakatga keltiriladi va ular ishlab chiqaruvchi kuchlar sifatida namoyon bo‘ladi. Inson mehnati ishlab chiqarish jarayonining eng ilg‘or qismidir, qolgan barcha ishlab chiqaruvchi kuchlar ishlab chiqarish jarayonining passiv qatnashchilaridir. Shunday qilib, aholi, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning asosiy sub’ektidir. U barcha moddiy boyliklarni yaratuvchi asosiy kuchdir. Ayni paytda aholi ishlab chiqarilgan barcha moddiy boyliklarning asosiy iste’molchisi hamdir. Shunigdek, aholi o‘zini-o‘zi takror barpo qiluvchi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Aynan mana shu uch xususiyat aholi faoliyatini ta’minlab beradi. Natijada aholi vujudga keladi, shakllanadi va rivojlanadi [2]. Aholi shakllanish va rivojlanishi jarayonlarini o‘rganishning markaziy vazifasini ushbu jarayonlarni belgilab beruvchi qonuniyatlarni aniqlash tashkil etadi. Aholi uch guruhdan iborat qonunlar ta’sirida bo‘ladi. Bular:

- umumsotsiologik qonunlar, ular kishilik jamiyatining barcha tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarida (ibtidoiy, quldorlik, feodalistik, kapitalistik, sotsialistik) o‘z ta’sirini ko‘rsatib boradi;
- qator sotsial-iqtisodiy farmatsiyalarga xos, yoki bir sotsial iqtisodiy farmatsiyaga yoxud uning bir bosqichiga xos bo‘lgan qonunlar;
- tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik qonunlardan iboratdir. Aholi yuqorida qayd etilgan qonunlar ta’sirida bo’lishi bilan bir vaqtda, uning o‘ziga xos rivojlanish qonunlari ham mavjuddir.

Bu yerda tabiiy-geografik va iqtisodiy-ijtimoiy geografik qonuniyatlarni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Insoniyat sivilizatsiyasi o‘choqlarni vujudga kelishida aynan geografik qonuniyatlarni ta’sir doirasi juda kuchlidir. Oddiy qaraydigan bo‘lsak, qayerda suv resursi bo‘lsa aholi aynan shu yerda vujudga kelgan va rivojlangan. Natijada geografik qonuniyat asosida vujudga kelgan aholi va uning manzillarida, madaniyat, qadriyatlar, xo‘jalik tarmoqlari, turmush darajasi rivojlanib bordi. Aholi rivojlanishi-bu millionlab insonlarning jahon madaniyati va sivilizatsiyasiga, uning barcha qadriyatlariga bo‘lgan munosabatining aksidir. Yangi avlodlarni takror barpo etilishi tarbiyalash va bilim berish jarayonlarida ularda yangi xilma-xil ijodiy dunyoqarashni shakllantirish hamda undan ijtimoiy foydali faoliyatda foydalanish uchun sharoit yaratib berishni nazarda tutadi [3]. Bunda shaxsning o‘rni beqiyosdir, chunki ayrim shaxsning rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar

taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichi va mezonidir. Aholining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari uzluksiz ravishda o‘zgarib boradi, uning soni, ishlab chiqarish kuchi o‘sib boradi, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga bo‘lgan ta’siri kuchayadi. Bilim va madaniy-texnik darajasi oshadi, talablari o‘sadi, ularni qondirish imkoniyatlari ham kengayib boradi. Inson moddiy ishlab chiqarishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. U mehnat qurollarini ixtiro qiladi, ularni mukamallashtiradi. Mehnat qurollari yordamida moddiy ne’matlar yaratadi. Tabiatiga ko‘ra, sotsial (ijtimoiy) asosga ega bulgan demografik jarayonlar ishlab chiqarish usulining rivojlanishi bilan belgilanadi va o‘z navbatida ishlab chiqarish kuchlarining, jami ijtimoiy munosabatlarining taraqqiyotiga aks ta’sir ko’rsatadi. Ana shu ya’ni ishlab chiqarish usuli ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm va kapitalizm davrlarida aholi rivojlanishning qonuniyatlarini belgilab beradi. Demak aholi rivojlanishining qonuniyatlari ijtimoiy tuzum xususiyati, ishlab chiqarish usuli ta’sirida shakllanadi va ular orqali belgilanadi. Shu bilan birga aks ta’sirining ya’ni aholi soni va sifat ko‘rsatkichlarining ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga bo‘lgan ta’sirini bilmoq va chuqur anglamoq darkordir. Aholining hududiy taqsimlanishi va joylashuviga tabiiy sharoit ham ta’sir ko’rsatadi. Ammo tabiiy sharoit bilvosita ya’ni ishlab chiqarish orqali ta’sir etadi. Chunki bir xil tabiiy sharoitdan xo‘jalik maqsadlarida foydalanishi, binobarin tabiiy sharoitning aholi hududiy joylanishiga ta’siri turli xil ijtimoiy tuzim sharoitida, texnika taraqqiyotining turli darajasida turlicha bo’ladi. Aholini funksional (bajaradigan vazifalariga ko‘ra) guruhlarga bo‘lish ham ishlab chiqarish negizida amalga oshiriladi. Moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari sanoat, qishloq xo’jaligi va transportda ishlovchi aholi birinchi funksional guruhni tashkil qiladi. Aholining ikkinchi funksional guruhi xizmat doirasida ishlovchilardir. Xizmat doirasiga savdo, maorif va sog‘liqni saqlash kabilar kiradi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmaydiganlar–bolalar, nafaqaxo’rlar, uy bekalari uchinchi guruhni tashkil etadi. Hududning ishlab chiqarish majmuasi qanchilik to‘la va tugallangan bo‘lsa mehnat resurslaridan shunchalik to‘la foydalaniladi, aksincha, ishlab chiqarish bir tomonlama rivojlangan bo‘lsa, mehnat resurslaridan foydalanishda katta kamchiliklar sodir bo‘lishi mumkin. Aholining migratsion aloqalari sohasida ham bir qancha qonuniyatlar aniqlangan. Chunonchi aholi ko‘chib ketgan hudud bilan ko‘chib borib joylashgan hududning ishlab chiqarish ixtisosi va tabiiy sharoiti o‘xshash yoki yaqin bo‘lsa, migratsiya muvofaqiyatli chiqadi, agarda bir-biridan keskin farq qilsa, migratsiya yaxshi natija bermaydi. Shuningdek, hamma joyda qishloqlardan shaharlarga bo’lgan migratsion harakat yaxshi natija beradi. Agar kengroq e’tibor beradigan bo‘lsak, har bir jamiyat aholisini o‘sha jamiyatning asosiy iqtisodiy qonuniga, aholi qonuniga asoslanib o‘rganish lozim. Chunki, aholining juda ko‘p ko‘rsatkichlarini (hududiy joylanishi, xalq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha va shahar bilan qishloq o‘rtasida taqsimlanishi, tarkibi, migratsiyasi va boshqalarni) tushuntirishda jamiyatning aholi qonuni negiz hisoblanadi. Bugungi jamiyatning asosiy iqtisodiy qonunining mohiyati, butun ishlab chiqarishning asosiy maqsadi xalqning doimo oshib boradigan moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir. Bir vaqtlar kapitalizm aholisi kapital jamg‘arib borib shu bilan o‘zi shunday vositani ko‘p ishlab chiqaradiki, bu vositalar shu ishchi aholisining o‘zini nisbiy ortiqcha aholi qilib qo‘yadi) va ijtimoiyizm (u ishsizlik va aholi nisbiy ortiqchaligini butunlay tugatish, mehnatkashlarni ijtimoiy ishlab chiqarishda to‘la band qilish negizida, ularning moddiy va madaniy turmush darajasini tinmay oshirib borish, shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirish va aholining o‘zini progressiv hamda ijtimoiy jihatdan sog‘lom tarzda takror barpo qilishni ta’minlab beradi) qonunlari amal qilingan va tahlil qilingan. Masalan, bugungi kunda O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat asoslari birinchi Prezidentimiz tomonidan asoslab berganidek, mamlakatni yangilash va modernizatsiyalash tadrijiylik va izchillikka erishish kafolati bo‘lib xizmat qilishi

mumkin. Taraqqiyotning o‘zbek modeli rivojlanish tamoyillarini to‘g‘ri tanlab olishda asos bo‘lib xizmat qildi. O‘zbekistonda demokratik taraqqiyot yo‘lini tanlashda respublikaning o‘ziga xos xususiyatlari (tabiiy-geografik, iqtisodiy-ijtimoiy geografik), xalq an’analari va milliy urf-odatlari, turmush tarzining hisobga olinganligi aynan o‘z yo‘limizni topa olishimizga asos bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan adolatli, demokratik huquqiy davlat qurishning besh asosiy tamoyilining ilgari surilishi va Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan harakatlar strategiyasi ham shundan. Natijada mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga xos aholi qonuni amal qila boshladi. Ushbu qonunning tub mohiyati shundan iboratki-tabiiy geografik, iqtisodiy-ijtimoiy geografik, tarixiy, iqtisodiy va ekologik xususiyatlarni hisobga olgan holda, u ishsizlikni tugatish, aholini ijtimoiy ishlab chiqarishda to‘la band qilish negizida, ularning moddiy va madaniy turmush darajasini tinmay oshirib borish, shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirish va aholining o‘zini progressiv hamda ijtimoiy jihatdan sog‘lom tarzda takror barpo qilishni ta’minlab beradi. Ushbu doirada ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar negizida, qisqa qilib aytganda ishlab chiqarish va uning hududiy joylashuvi doirasida quyidagi jarayonlar amalga oshirilib borilmoqda: - Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash-ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish, ishlab chiqarishni ma’naviy jihatdan yangilash; - Tarkibiy o‘zgarishlar-iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini rivojlantirish, yangi o‘zak tarmoqlarni barpo etish, samarali va mustaqil iqtisodiyotni shakllantirish; - Diversifikatsiya-korxona va tarmoqlar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmat turlarini yangilash, mahsulot va xizmat turlarini ko’paytirish. - Mahalliylashtirish-ishlab chiqarish jarayonida mahalliy xomashyo va resurslardan kengroq foydalanish, milliy korxonalar uchun butlovchi qismlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan etkazib berish, importni qisqartirish evaziga valyuta resurslarini tejash. Ushbu bozor iqtisodiyoti aholi qonunining tub mohiyati tarixan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar zaminida yotadi, bozor iqtisodiyotining tabiati bilan belgilanadi. Bu aholi qonunining amal qilishi natijasida mehnatga layoqatli butun aholini to’la band qilish zarurati va imkoniyati vujudga keladi. Iqtisodiyotni bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida rejali va proportsional (oqilona, samarali) rivojlantirish qonuni, ishchi kuchidan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bu qonun, dastavval, mamlakat ichida, iqtisodiy rayonlar, viloyatlar, tumanlar, shahar va qishloqlarda mehnat resurslarini oqilona joylashtirishni ko’zda tutadi. Buning asosida har qanday hududiy birlikda joylashgan, tabiiy resurslar va sharoitlardan unumli-oqilona foydalanish talab etiladi. Ishlab chiqarishni hududiy asosda tashkil etishda mehnat resurslari muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Bundan tashqari faqat ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona, hududiy tashkil etilishi kishilarning hayoti va faoliyati uchun eng qulay sharoitlarni yaratib berish maqsadida shaharlar, qishloq aholi manzilgohlarini rivojlantirish va joylashtirishni rejalashtirishga muqarrar suratda asoslanadi. Umuman har bir formatsiyaga xos bo‘lgan aholi qonunlarining tub mohiyati, ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik shakliga qarab belgilanadi. Masalan, eng qadimgi aholi maskanlari inson yashashi uchun zarur biologik resurslar mavjud bo’lgan joylarda, ya’ni Osiyoning janubi va Shimoliy Afrikada, O‘rta Yer dengizidan to Tinch okeanigacha bo‘lgan hududlarda joylashganlar. Bu hududlarda aholi juda uzoq vaqt ovchilik bilan shug‘ullangan. Keyinchalik ushbu hududlarda cho‘llashish jarayonlari kuchaygan. Aholini ovchilik bilan yashashlari uchun imkoniyatlar qisqarib ketgan. Aholi joylashuvining quyidagi qonuniyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, eramizning boshlarida aholi asta-sekin dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullana boshlaydi. Moddiy ne’matlarni o‘zlari mehnat qilib yaratishga o‘tadilar va xo‘jalik yuritishning ishlab chiqarish turi etakchilik qila boshlaydi. Aholi ma’lum joylarda o‘troq bo‘lib yashaydilar, maskanlar quradilar. Natijada, avval qishloq maskanlari keyinchalik esa,

shaharlar paydo bo‘la boshlaydi. Aholining turmush tarzi, ovqatlanishi yaxshilana boradi. Inson hayotida ijtimoiy o’zgarishlar sodir bo‘ladi, yozuv shakllanadi, fan va tibbiyot, madaniyat rivojlana boradi. Aholining turmush tarzi yaxshilangach, o‘lim hollari kamayadi, aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddati ham uzayadi. Natijada, yer kurrasida aholi soni, aholi maskanlari ko‘payib boradi. Aholi zichligi ayniqsa, dehqonchilik bilan shug‘ullanishi uchun tabiiy imkoniyatlari mavjud, sug‘oriladigan yerlarda chorvachilik bilan shug’ullanish imkoni bor hududlarga nisbatan yuqori bo’lgan. Masalan, Nil, Frot, Dajla, Gang, Xuanxe daryolari hamda O‘rta yer dengizi sohillarida eramizning boshida aholi zichligi 1 km^2 ga 10 kishini tashkil etgan. 2020 yil ma’lumotiga e’tibor beradigan bo‘lsak, yer kurrasidagi quruqlikning inson yashashi mumkin bo‘lgan qismida (136,1 mln.km^2.) o‘rtacha aholi zichligi 1 km^2 ga 57 kishidan to‘g‘ri kelmoqda. Agar aholi 1 km^2 ga 50 kishidan to‘g‘ri kelsa, aholi zichligi yuqori hisoblanadi. Aholi dunyo qit’alari bo‘ylab ham juda notekis joylashgandir. Ma’lumotlarga qaraganda, XXI asr boshlarida aholi zichligi 1 km^2 ga Osiyoda 130,3 kishi, Yevropada 105,1 kishi, Afrikada 33,4 kishi, Shimoliy Amerikada 26,4 kishi, Janubiy Amerikada 21,4 kishi, Avstraliya va Okeaniyada 4,1 kishini tashkil etmoqda. Yer yuzasida aholi juda notekis joylashgan [4]. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yer quruqlik yuzasining atigi 2% da unda mavjud aholining 70% i istiqomat qiladi. Aholi nihoyatda zich joylashgan mintaqalar qatoriga Janubiy Sharqiy va Sharqiy Osiyo, Yevropa hamda AQSH ning shimoli-sharqiy qismi “Bosvash” megapolisi kiradi. Tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillar asosida qaraydigan bo‘lsak, dastlabki uchta mintaqada aholi qadimdan joylashgan bo‘lib, u hozirgi vaqtda juda yuqori darajadagi aholi zichligiga ega. Bunday holat avvalambor, bu yerda mehnatni juda ko‘p talab qiluvchi sholichilikning qadimdan mavjudligi, qolganlarda esa XVIII-XIX asrlarda yuz bergan sanoat inqilobi hamda undan keyingi davrda amalga oshgan industriallashtirish jarayoni bilan uzviy bog‘langandir. Insonlarning qadimdan okean va dengiz sohillarida joylashishiga intilishi ham muhim omillardan biridir. Hozirgi vaqtda dengiz va okeanlardan quruqlikka tomon 200 km ga cho‘zilgan yer yuzasi qismida insoniyatning yarmidan ziyod qismi, 50 km kenglikka ega bo’lgan quruqlik qismiga esa dunyo aholisining deyarli 30 foizi to’plangandir. Yuqorida qayd qilingan aholi rivojlanishining asosiy qonuniyatlari ichida, tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik qonunlar o‘ziga xos mazmunga ega ekanligi yuqoridagi misollarda ko‘rinib turibdi. Haqiqatdan ham, aholi rivojlanishi nafaqat ijtimoiy, iqtisodiy balki tabiiy geografik, iqtisodiy-ijtimoiy geografik qonuniyatlarga ham chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rib turibmiz. Bu yerda aholi rivojlanishi qonuniyatlari negizida siyosiy tuzum, boshqaruv mexanizmia, olib borilayotgan islohotlar, mazkur jamiyat taraqqiyoti asoslari yotadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqgan holda umumiy aytadigan bo‘lsak, aholi rivojlanishining asosiy qonuniyatlari va ularning geografik xususiyatlari negizida albatda ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar samaradorligi bo‘lishi kerak. Aynan O‘zbekistonda olib borilayotgan bugungi islohotlar samaradorligi quyidagi to‘rtta omilga bog‘liq ekanligini e’tiborga olishimiz lozim: - qonun ustuvorligi; - korrupsiyaga qarshi qat’iy kurash; - institutsional salohiyatni yuksaltirish; - kuchli demokratik institutlarni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. “O‘zbekiston ovozi”- gazetasi. №08. 25.01.2020 y.

2. A. A. Qayumov, Z. X. Rayimjonov, O‘. Sh. Yakubov. Aholi geografiyasi va demografiyasi o‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2007. O‘zDMU. 87-b.

3. E. T. Salixov. Xalq manfaatlariga xizmat qilish ustuvor vazifa. Xalq so‘zi. 30.06. 2020 y.

4. www. geografiya.ru.